



O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA NIKOH BILAN BOG'LIQ URF- ODAT LEKSIKASI

O'razboyev Olimjon Rustam o'g'li

Berdaq nomidagi

Qoraqalpoq davlat

universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi nikoh marosimi ayniqsa sovchilik udumlari bilan bog'liq leksikaning ayrim jihatlari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: qiz tanlash, qiz ko'rish, og'iz iskash, qulog'ini tishlatish ,beshik kerti qilish , etak yirtar qilish, ro'mol o'rash.

Abstract: In this article, some aspects of the lexicon related to the marriage ceremony in the Uzbek and Karakalpak languages, especially the marriage ceremony, have been studied.

Key words: choosing a girl, seeing a girl, kissing her mouth, biting her ear, making a crib, tearing a skirt, wrapping a scarf.

Аннотация: В данной статье изучены некоторые аспекты лексики, связанной с брачной церемонией в узбекском и каракалпакском языках, особенности свадебного обряда.

Ключевые слова: выбрать девушку, увидеть девушку, поцеловать ее в рот, покусать за ухо, сделать кроватку, порвать юбку, обмотать шарфом.



Qoraqalpoq xalqining qahramonlik dostonlaridagi bahodirning nikoh marosimi bilan bog‘liq syujetlar sikli bir-biriga o‘xshash bo‘lib, voqealarga boydir. Ularning turlari har xil yo‘nalishlarda o‘ziga xos ravishda tasvirlanadi va tarixiy-ijtimoiy dalillarga asoslanadi. Ushbu motivlar o‘z navbatida o‘zgaruvchan xususiyatga ham ega. Yuqorida ta’kidlanganidek, qahramonlik unashtiruvlari matriarxat va urug‘chilik tizimining tarqalish davri uchun xarakterli bo‘lsa, patriarchal-urug‘chilik bosqichiga kelib nikohning sovchilik, unashtiruv, **■qalin■** to‘lash kabi udumlar o‘z ifodasini topadi. Patriarxal feodal jamiyatda esa nikoh bilan bir qatorda bir urug‘ tarkibidagi ■tire (urug‘larning alohida tarmoqlarga bo‘linishi) o‘rtasida **■qiz alisiw**, quda-andachilik munosabatlarini o‘rnatish bilan bog‘liq udumlar ham ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Darhaqiqat, dostonlarning syujetlari asosida yotuvchi epik nikohlar kontaminatsiya, ya’ni aralash usuli orqali tasvirlanadi. Ularni alohida-alohida o‘rganish zarurati tug‘ilganda esa tabiiy ravishda ko‘plab qiyinchiliklar yuzaga keladi. Masalan, eng qadimgi dostonlardan biri **■Alpomish■** dostoni sujeti Boybo‘ri va Boysari o‘rtasidagi unashtiruv marosimidan boshlanadi hamda bosh qahramon Alpomishning uylanish safarlari bilan davom etadi. U sevgilisi Gulbarchin kutib o‘tirgan raqiblari Toychaxon mamlakatiga yo‘l oladi.

Ma’lumki, o‘g‘ilni sovchi qo‘yib, unashtirish orqali uylantirish an■analari keyingi davrlar (milodiy VI-IX asrlar)ga xos belgilar ekanligi ma’lum. Bunday turli xil davrlarni belgilovchi sujetning aralash tarzda ifoda etilishi folklor asarlar uchun, ayniqsa, qoraqalpoq dostonlari uchun xos bo‘lgan belgilardan hisoblanadi. Odatda, ajdoddlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan voqealar ijrochilar tomonidan tanlanmaydi, aksincha, ularni xronologik tartib qiziqtirmasligini e■tiborga olishimiz lozim. Qoraqalpoq va o‘zbek xalqlarida nikoh bilan bog‘liq urf-odatlarning tarixiy shakllanishi bir bo‘lsada, ayrim hududiy tarqalishlar hisobidan bugungi kunda biroz o‘zgarishga uchragan holda ado etilmoqda. An■ana, marosim va urf-odatlar xalq



ijodiyoti bilan bog‘liq bo‘lganlikdan bunday o‘zgarishlarning mavjudligi tabiiy hol, albatta.

Fotiha to‘yi. Nikoh ota-onalarning ruxsati va duosi bilan, bir necha bosqich qilib o‘tkaziladi. O‘g‘il voyaga yetganda ota-onasi unga mos keladigan qizni izlay boshlaydilar.Bu jarayonga yaqin qarindoshlari, qo‘snilari, oshnalari ham kirishadi. Qizni topgandan keyin yigitning xolalari yoki ammalari qizning uyiga uni ko‘rish, ota-onalari bilan va ehtimoliy kelining uydagi ahvoli bilan tanishish uchun biror bahona bilan kiradilar. Shundan so‘ng qo‘snilari va tanishlari tanlangan qizning oilasi haqida surishtiradi. Ijobiy javob olingan holda uyga sovchilar yuboriladi.Sovchilikning asosiy marosimlaridan biri fotiha to‘yidir.Sovchilar fotiha qilinadigan kunni belgilaydilar.Shu kuni qizning uyida atrofdagi taniqli oqsoqolar, mahalla oqsoqoli, qizlar yig‘iladi.Sovchilar o‘zining kelish maqsadini bayon etganlaridan keyin «**non sindirish**» marosimi boshlanadi.Shu paytdan boshlab yoshlar bir-biri bilan bog‘langan, fotiha qilingan deb hisoblanadi. Fotiha to‘yi nikoh tuziladigan va to‘y o‘tkaziladigan kunni tayinlash bilan tugaydi. Sovchilardan har biriga ichida ikkita non, shirinliklar bo‘lgan dasturxon beriladi, shuningdek qiz tomonidan yigitga va uning ota-onalariga sovg‘alar berib yuboriladi. Sovchilar kuyovning uyiga qaytganidan keyin ularning qo‘lidan sovg‘alar qo‘yilgan patnislarni olib, «**sarpo ko‘rar**» marosimini boshlaydilar.Dasturxon odatda ko‘p bolali ona tomonidan ochiladi.Barcha yig‘ilganlar kelining uyidan keltirilgan pishiriqlar, shirinliklardan bahramand bo‘ladilar. Fotiha to‘yidan boshlab va to to‘yning o‘zigacha yoshlarning ota-onalari qalin, sep masalalarini va to‘y tantanasi bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etadilar. To‘ydan bir necha kun avval qiznikida «**qiz oshi**» marosimi o‘tkaziladi, unga qiz o‘zining yaqinlari va o‘rtoqlarini taklif etadi. Mazkur marosim asosan o‘zbek oilalarida ado etiladi.Bugungi kunda Qoraqalpog‘istonning Amudaryo, Beruniy, Ellikqalpa, To‘rtko‘l tumanlarida ham fotiha to‘yi amalga oshirilib kelinmoqda.Xalq orasidan bu ko‘rinishdagi to‘y **Patya** to‘y shaklida



ishlatiladi. Va fotiha to‘yi bo‘lgan qizning boshi bog‘li ya’ni **patyalangan** hisoblanadi. Qoraqalpoq millatiga mansub xalqlarning ko‘pchiligida mazkur to‘y shakli uzuk, sirg‘a taqish jarayoni bilan amalga oshiriladi. Ya’ni to‘ydan oldin bo‘ladigan sovchilik jarayonlarida yigit tomon qiz tomonga tanishuv uchun keladi. So‘ngra qiz tomon rozi bo‘lsa qizga sirg‘a taqish bilan qizning boshi boyylanadi. Xalq orasida bu jarayon **Sirg‘a saliw** deb nomlanadi. Ammo mazmun jihatdan **fotiha to‘yga to‘g‘ri kelayotganini anglash qiyin emas.**

Nikoh to‘yi turkiy xalqlar uchun muhim marosim hisoblanib, to‘y oldi va to‘ydan keyin o‘tkaziladigan tantanalarga alohida e’tibor bilan tayyorgarlik ko‘riladi. O‘zbek milliy urf-odatlariga ko‘ra kuyov va kelinning ota-onasi to‘yga rozilik bildirganidan so‘ng, fotiha to‘yi o‘tkaziladi. Kuyov kelin tomona, kelin esa kuyov tomona sovg‘alar yuborib, ikki yosh unashtiriladi.

Nikoh to‘yi kuni kuyov tomonidan saharda to‘y oshi tarqatilib, osh kelinning uyiga ham yuboriladi. Kuyov o‘z navkarlari bilan kelinning uyiga borib, kelin ota-onasining duosini oladi. Kelinning uydan olib ketilishi kelinning ota-onasi bilan xayrashish marosimi hisoblanadi. To‘yga yaqin qarindoshlar, do‘s-t-u birodarlar, hamkasblar, sinfdoshlar, qo‘ni-qo‘shnilar taklif qilinadi. Noz-u ne’matlardan tortib, o‘yin-kulgu va raqs bilan nikoh to‘yi katta miqyosda kun bo‘yi dabdabali qilib o‘tkaziladi. Nikoh to‘yidan so‘ng ertasi kuni azonda kelin salom marosimi boshlanadi. Kuyovning ota-onasi, yaqin qarindoshlar, do‘s-tlar va qo‘ni-qo‘shnilar navbat bilan kelinning oldiga borib, o‘zlarining samimiyl tilaklari va sovg‘alarni kelin bilan ularshadilar. Kelin har bir kishiga egilib, salom beradi. Nikoh marosimi an’anaviy tarzda o‘zbeklarning hayotida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi va ayniqsa tantanali nishonlanadi. Umumiy xususiyatlari bo‘la turib, u turli viloyatlarda o‘zgacha tusda bayram qilinadi. Nikoh marosimining asosiy payti kelinning ota-onasining uyidan kuyovning uyiga o‘tishi paytidir. To‘y kuni kuyovnikida to‘y oshi (palov) tayyorlanadi va kelinnikiga yuboriladi, u yerda u



dasturxonga tortiladi. Xuddi shunday osh kuyovning uyida ham o‘tkaziladi. To‘y kuni masjidning imomi ikki yoshga «**Xutbai nikoh**» ni o‘qiydi, shundan so‘ng ular xudo oldida er-xotin deb e’lon qilinadi. Imom yoshlarga er va xotinning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Odatda nikoh o‘qilganidan so‘ng yoshlar o‘zining fuqarolik nikohini qayd etish uchun ZAGS ga boradi. To‘y kuni kelinnikida kuyovga sarpo (to‘yga sovg‘a qilingan kiyimlar va poyafzal) kiydiriladi, shundan so‘ng kuyov o‘z oshnalari bilan kelinning ota-onasi huzuriga salom berish uchun boradi. Kuyovning oshnalari bilan qaytganidan so‘ng kelin ham keladi. Kuyovning uyiga yuborishdan avval kelinnikida ota-onas bilan xayrashish marosimi bo‘lib o‘tadi. Kelin bilan birga yaqin o‘rtoqlari ham boradi. Ular qo‘shiqlarni aytadilar («O‘lan» va «Yor-yor» qo‘shiqlari). Kelinni kuyovning uyida kutib olishdan haqiqiy to‘y boshlanadi. To‘y tugaganidan keyin kuyov kelinni ikki yosh uchun ajratilgan xonaning eshigigacha kuzatadi. Xonada kelinni «**yanga**» (odatda kelinga yaqin bo‘lgan bir ayol) kutib oladi, kelin boshqa kiyim kiyadi va chimildiq (go‘shanga) ortida turib, kuyovni kutib olishga tayyorlanadi. Bir qancha vaqt dan keyin kuyov oshnalari bilan birga xonaga yaqin keladi va yanga bilan birga uni kelin kutib turgan gushanga oldiga boradi. Kelinning oldiga kirish uchun u kelinni yangadan ramziy sotib olishi lozim, ular savdolashadi. Ertalab azonda «Kelin salom» marosimi boshlanadi. Marosim boshlanishiga yaqin hovlida kuyovning ota-onasi, barcha yaqin qarindoshlari, kuyovning oshnalari va yaqin qo‘shnilari yig‘iladi. Ularning hammasi navbatli bilan kelinning oldiga kelib, o‘zining tilaklari, sovg‘alari va duolarini baxshida etadi. Kelin har bir kishiga beligacha egilib salom berishi lozim. Shu tariqa bayram tugab, oilaviy hayot boshlanadi.

Qoraqalpoq xalqida esa nikoh to‘yining motivi aynan shu ko‘rinishda, lekin bajarilishi biroz farqli. Ya’ni qiz uzatilayotgan xonadonda katta elga osh berilib to‘y qilinadi. Uzatilayotgan qizga **hawjar** aytilib yigitnikiga kuzatib qo‘yiladi. Yigitning uyida ham ayni vaqtida to‘y qilinib elga osh beriladi. Kelinni kutib olish



uchun tayyorgarlik ko‘riladi. Kelin yangalar bilan kelgandan keyin Əkelin salom ə amalga oshiriladi. Barcha qarindoshlarga, yoshi kattalarga egilib salom beriladi. Qoraqalpoq oilalarida o‘zbek oilalaridan farqli Əkelin salom ə shu kunning o‘zida amalga oshiriladi.

Ertalabki osh. Ertalabki osh marosimi to‘y (sunnat to‘yi yoki nikoh to‘yi) va aza ma’rakasida (o‘limidan keyin 20 kun hamda bir yildan keyin) o‘tkaziladi. To‘yni o‘tkazuvchilar ertalabki oshning kuni va vaqtini avvaldan mahalla yoki kvartal qo‘mitasining jamoatchiligi bilan kelishgan holda belgilaydilar. Shu kunga qarindoshlar, qo‘shnilar va tanishlariga taklifnomalar yuboriladi. Bir kun oldin kechqurun «**sabzi to‘g‘rash**» marosimi o‘tkaziladi, unga odatda qo‘shnilar va yaqin qarindoshlar keladilar. Sabzi to‘g‘rab bo‘linganidan keyin barcha ishtirokchilar dasturxonga taklif etiladi. Odatda sabzi to‘g‘rashga artistlar ham chaqiriladi. Ovqatlanish paytida oqsoqollar kelganlar o‘rtasida ishlarni taqsimlaydilar.

Ertalabki osh bomdod namozining tugashi paytigacha tayyor bo‘lishi lozim, chunki namozdan chiqqan kishilar birinchi mehmonlar bo‘ladi. Ertalabki namoz tugagan paytda karnay-surnay va nog‘ora ovozlari ertalabki osh boshlanganidan xabardor etadi. Mehmonlar dasturxonga o‘tirib, fotiha o‘qiganlaridan keyin ularga non va choy tortiladi. Shundan keyingina laganlarda ikki kishiga bir lagan hisobidan osh olib kelinadi. Ovqatdan keyin laganlar olib qo‘yiladi, mehmonlar yana fotiha o‘qib, mezbonga minnatdorchilik bildirib ketadilar. Ular ketganidan keyin dasturxon tezgina yangi mehmonlarning tashrifi uchun tuzatiladi. Ertalabki osh odatda ko‘pi bilan bir yarim-ikki soat davom etadi. Shu vaqt mobaynida taklif etilgan artistlar qo‘sish aytadilar. Ertalabki osh tugaganidan keyin faxriy mehmonlarga sovg‘alar – odatda choponlar (milliy erkak to‘nlari) beriladi. A’za paytidagi ma’raka oshi shu bilan farq qiladiki, mehmonlar dasturxonga o‘tirganlarida Qur’on suralarini o‘qiydilar va o‘lgan odamni xotirlaydilar. Ovqat



tugaganda ham Qur'on suralari o'qiladi. Ma'raka oshida artistlar chaqirilmaydi, dasturxon bayram to'y oshiga qaraganda kamtarroq bezatiladi. Shuni aytib o'tish lozimki, bayram to'y oshi va ma'raka oshida faqat erkaklar xizmat qilib yuradi.

Qoraqalpoq xalqida mazkur marosim tonggi paytda amalga oshirilmaydi. Ko'pincha asr nomozidan keyinga to'g'irlab amalga oshiriladi. Jarayonlar xuddi ertalabki oshga o'xhash holatda bajariladi.

To'y qoraqalpoq xalqi uchun ham quvonchli bayramlardan biri hisoblanadi. Xalq orasida shunday so'z yuradi: **¶Topgan tutganing to'yga buyursin** degan. To'y qoraqalpoq xalqida ham har xil sabablar bilan beriladi. Qiz uzatish to'yi, bola uylantirish, yoshga to'lish, yubiley, joy to'yi, sunnat to'y va h.k. ular orasida eng katta ko'lamda o'tkaziladigan va boy urf-odatlarga boy bo'lgan to'y nikoh bilan bog'liq kelin tushirish, qiz uzatish to'ylari hisoblanadi. Qoraqalpoq xalqining an¶anaviy qo'shiqlari **to'y boshlash, haw-jar, sin¶siw, bet ashar** shular jumlasidandir. **¶To'yning bo'lishidan, bo'lishgacha tayyorlarligi qiziq¶** degan jumla juda ko'p yuradi. Qoraqalpoq xalqida nikoh to'yida asosiy vazifani qo'shni ayollar bajarishadi. Ular to'y xabarini eshitgandan darhol to'y bo'layotgan uyda xizmatda turishadi. To'y kunidan bir kun avval **¶Kapkir kuydi¶, ¶Rapida kuydi¶** degan marosim o'tkaziladi. Bunda qo'shni erkaklar va ayollar yig'ilib to'y bo'ladigan xonadonni to'y kuniga tayyorlaydi. Qozonlar tayyorlanadi, o'tinlar tayyorlanadi. Ayollar ikki, uch xalta undan xamir qorib bo'g'irsoqlar pishirishadi. Bo'g'irsoqni pishirgan, va qozonga o't yoqqan ayollarga to'yxona egasi eng so'nggi modadagi gazlamalardan bir ko'ylaklik mato hadya qiladi. To'y bo'ladigan xonadon atroflari tozalanib, supurilib to'yga tayyorlanadi. Yaqin-uzoq qarindoshlar ham bu marosimga tashrif buyuradi. O'zлари atagan pul yoki boshqa buyumlarni olib kelishadi, ertaga to'yda yordam bo'lsin degan ma'noda. Odatda qoraqalpoq xalqida to'y marosimlari 400-500 ba'zan 1000 kishigacha hajmda o'tkaziladi. Shuning uchun bu mehmonlarning barchasi to'y bo'layotgan xonadonga sig'masligini



hisobga olib qo'shnilariga 『Qo'niq joy』 beriladi. Ya'ni uzoq-yaqindan kelgan mehmonlar o'z mehmon uylariga borib ovqatlanib dam olib ketish imkoniyati yaratiladi. Buning uchun uylarga barcha kerakli mahsulotlar tarqatiladi. To'ydan bir kun avval ko'cha biyi tomonidan uylar soni aniqlashtirilib, barcha uylarga boriladigan mehmonlar ro'yhati tuziladi. To'y egasi uylarga barcha oziq-ovqat mahsulotlarini beradi. 『Qo'niq joy』 issiq choy berib mehmonlarni yaxshi kutib olsa bo'lgani. Bu urf-odat qoraqalpoq xalqida uzoq tarixga ega an'ana sifatida davom qilib kelmoqda.

To'y boshlanish arafasida quyidagi qatorlar aytilib o'yin kulgular boshlanadi:

Toylin'iz, toylin'iz,

Jarasadi boylin'iz,

Biz otirmiz toyxanada,

Baxitlar bolsin ziyada,

Hawazlar jan'lap dunyada,

Qutli bolsin toylin'iz.

Har bir xalqning o'z an'ana va qadriyatlariga xos bo'lgan bir qancha urf-odat va milliy marosimlari mavjud. To'y marosimlari va ularni o'tkazish jarayonlari bilan bog'liq an'analar, udumlar, va ularning uyushtirishga mansub vositalar kirdi. To'y marosimlari barcha xalqlarda qadimdan shakllangan ham etnografik, ham umuminsoniy qadriyatları hisoblanadi. Ularda muayyan xalqning azaliy urf-odatlari, ananalari, milliy madaniyati ifodalangan bo'lib, ularga nisbatan madaniy meros, madaniy jarayon, madaniy makon, madaniy an'ana va madaniy fond kabi birlashmalar qo'llanilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", ikkinchi qism, davlat ilmiy nashriyoti 2018.



2. Mahmud Sattor, O‘zbek udumlari. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan”nashriyoti 1993.
3. Mamatqul Jo‘rayev, Darmonoy O‘rayeva, O‘zbek mifologiyasi. Toshkent “Excellent pygrophy”nashriyoti 2020.
4. Чилла ва у билан баглик расм-русумлар ва урф-одатлар тУгрисида батафсилик каранг; О.Бурнеке. Чилла нима/Соадат 1993 (A.Ashirov. “O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari 79. Bet)
5. Назаров Н. Лакайлар этнографияси.-Т..2007.-Б.8 8. Жураев М. Соч магияси билан баглик; маросимлар //Узбекистон этнологияси. Янгача карашлар ва назарий методологик ёндашувлар. Тошкент. 2004.